

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

3-2023

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

| | |
|---|-----|
| O.M.Normatov | |
| O'zbekistonning ma'muriy-hududiy holati rayonlashtirish o'tkazilishi arafasida | 229 |
| Sh.T.Tursunkulova | |
| G'azzoliyning go'zal axloq to'g'risidagi qarashlari..... | 235 |
| I.M.Azimov | |
| O'zbek-lotin alifbosini yaratish uchun harakatlar | 239 |
| Sh.D.Ismoilov | |
| Talabalarni oilaviy hayotga tayyorlashning pedagogik shakl va metodlari | 247 |
| A.A.Qambarov | |
| Marg'ilonlik "Katta ashula" sohiblari..... | 251 |
| M.Kamalitdinov, T.Mavlonov | |
| Sharsimon qobiq dinamikasi qisman suyuqlik bilan to'ldirish..... | 257 |
| A.I.Saminov | |
| Oksymoronning semantik xususiyatlari | 261 |
| I.X.Mavlonov | |
| Milliy yuksalish konsepsiyasini amalga oshirishning nazariy-metodologik asoslari | 266 |
| B.X.Baydjanov, Z.I.Muhammadiyeva | |
| O'quvchilarda mantiqiy kompetentlikni shakllantirish usullari..... | 272 |
| B.X.Baydjanov, M.R.Maxkamov | |
| Boshlang'ich sinf o'quvchilarining muloqot qilish qobiliyatlarini shakllantirish | 276 |
| Z.M.Abdullaev | |
| Asl turkiy antroponimlar va ularning tarixiy-etimologik shakllanishi | 280 |
| G.Z.Abduraxmonov | |
| Jamiyat taraqqiyotining yangi bosqichida g'oyaviy birlashuv zaruriyatini o'rganishning nazariy-metodologik asoslari..... | 284 |
| O.A.Ashurova | |
| Bo'lajak maktabgacha ta'lif mutaxassislarida ekoestetik madaniyatni rivojlantirishning ustuvor yo'naliishlari | 288 |
| Sh.Ismoilov | |
| Nogironlik tushunchasining modellari..... | 293 |
| D.O.G'afurov | |
| Yangi O'zbekistonda oila munosabatlarining huquqiy asoslari hamda uning jamiyat ma'naviy rivojida tutgan o'rni..... | 300 |
| D.B.Niyazov, M.M.Niyazova, Sh.M.Saydaxmedov, B.Z.Adizov, M.Y.Ismoilov | |
| Nitron tolasi chiqindisi asosida F-seriyali flokulyantlarni olish | 303 |
| D.S.Ergasheva | |
| O'zbek xalq ertaklari orqali vatansevarlik va do'stlikga o'rgatishning pedagogik strategiyasini ta'nishlash..... | 308 |
| G.M.Ravshanova | |
| Axborotlashgan jamiyatda ta'lif va ta'lif axborotlashuvining dialektik aloqadorligi muammosini o'rganish | 313 |
| O.O'.Xolmatova | |
| O'zbek xalq maqollarida miqdor konseptining kognitiv xususiyatlari..... | 320 |
| F.A.Tashpulatov | |
| O'quvchi yoshlarni basketbolga o'rgatish texnikasining usullari..... | 324 |
| S.G'.Shomurodova | |
| Nikoh urf-odatlari bilan bog'liq kiyimlarning to'y qo'shiqlaridagi poetik talqini | 329 |
| F.N.Usmonov | |
| Zamonaviy kompyuter etikasi muammolari | 334 |
| E.Sh.Jumayeva, U.U.Ruzmetov, Z.A.Smanova | |
| Suvdag'i og'ir metallarni aniqlash usullari va og'ir metallarning organizm hayotiy faoliyatiga zaharli ta'siri | 340 |
| S.Sh.Do'saliyeva, V.U.Xo'jayev | |
| Allium karataviense o'simligi takibidagi flavonoidlar taxlili..... | 349 |

**BO'LAJAK MAKTABGACHA TA'LIM MUTAXASSISLARIDA EKOESTETIK
MADANIYATNI RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI**

**ПРИОРИТЕТНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЯ ЭКОЭСТЕТИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ У
БУДУЩИХ СПЕЦИАЛИСТОВ ДОШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ**

**PRIORITY DIRECTIONS FOR THE DEVELOPMENT OF ECOAESTHETIC CULTURE IN
FUTURE PRESCHOOL EDUCATION SPECIALISTS**

Ashurova Oygul Anvarjonovna¹

1Ashurova Oygul Anvarjonovna

– Farg'ona davlat universiteti, mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya

Mazkur maqolada bo'lajak maktabgacha ta'lism mutaxassislarida ekoestetik madaniyatni rivojlanirish ustuvor yo'nalishlari, bo'lajak maktabgacha ta'lism tizimi pedagoglarining ekoestetik madaniyatini rivojlanirish ekologik ta'lim-tarbiya jarayonida amalga oshirish va bo'lajak pedagog-tarbiyachilarda ekologik-estetik dunyoqarashni shakllantirish orqali ekoestetik madaniyat rivojlanirish to'g'risidagi fikr mulohazalar bayon qilingan.

Аннотация

В статье рассмотрены приоритетные направления развития экоэстетической культуры будущих специалистов дошкольного образования, реализация развития экоэстетической культуры будущих педагогов системы дошкольного образования в процессе экологического образования и воспитания, эколого-эстетического мировоззрения будущих педагогов. -представлены взгляды педагогов на развитие экоэстетической культуры через формирование.

Absrtact

In this article, priority directions for the development of eco-aesthetic culture in future preschool education specialists, implementation of eco-aesthetic culture development of future preschool education system pedagogues in the process of ecological education and upbringing, and ecological-aesthetic outlook in future pedagogues-educators opinions on the development of eco-aesthetic culture through formation are presented.

Kalit so'zlar: ekoestetik madaniyatni, yangi taraqqiyot, zamonaviy dunyoqarash, ilmiy-nazariy qarashlar, ekologik-estetik dunyoqarashni, individual sifatlar, barkamol inson, ta'lim standartlari, maktabgacha ta'lim, ilmiy-metodik.

Ключевые слова: экоэстетическая культура, новое развитие, современное мировоззрение, научно-теоретические взгляды, эколого-эстетическое мировоззрение, индивидуальные качества, всесторонне развитая личность, образовательные стандарты, дошкольное образование, научно-методика.

Key words: eco-aesthetic culture, new development, modern outlook, scientific-theoretical views, ecological-aesthetic outlook, individual qualities, well-rounded person, educational standards, preschool education, scientific-methodology.

KIRISH

O'zbekistonning yangi taraqqiyot strategiyasini amalga oshirish jarayonida ham bolalarni maktabgacha yoshdanoq tabiatni asrab avaylashga oid ekologik bilimlar bilan qurollantirish va tabiat bilan yaqindan tanishtirib borish, ularga ekologik tarbiya berish, shu orqali bolalarning borliq to'g'risidagi tasavvurlarini boyitish, dunyoqarashini o'stirish, hayotiy tajribalarini mustaxkamlash, mustaqil fikrlash qobiliyatlarini, ma'nnaviy hissiyotlarini taraqqiy toptirish yanada muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, bolalarga inson umri tabiat bag'rida kechishini, inson va tabiat o'zaro bog'liqligini, ularning bir-biriga nisbatan ta'sir ko'rsata olishini hamda bu ta'sirlarning ijobiy va salbiy oqibatlarini anglatish, shu orqali bolalar o'rtaida ekologik tarbiyani yo'lga qo'yish, yosh qalblarda ona tabiatga mehr-muhabbat tuyg'ularini uyg'otish – bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir. Buning uchun esa bolalarni tarbiyalovchilari, ya'ni maktabgacha ta'lim mutaxassislарining o'zi kuchli kasbiy bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi hamda tayanch kompetensiyalar shakllangan bo'lishi talab etiladi.

Bo'lajak maktabgacha ta'lism tizimi pedagoglarining ekoestetik madaniyatini rivojlanirish ekologik ta'lim-tarbiya jarayonida amalga oshiriladi. Bo'lajak pedagog-tarbiyachilarda ekologik-estetik dunyoqarashni shakllantirish orqali ekoestetik madaniyat rivojlanib boradi. Shunday ekan, bo'lajak pedagog-tarbiyachilarda ekologik ta'lim-tarbiya berish tizimini takomillashtirish, ekologik

ta'lism tarbiya jarayoniga ekoestetik bilim va ko'nikmalarni shakllantirishga alohida e'tibor qaratish dolzarblik kasb etadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Milliy ta'lism tizimida endilikda maktabgacha ta'lism O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 9-sentabrdagi «Maktabgacha ta'lism tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» PQ-3261-sonli qarori va unga ilova qilingan «Yo'l xaritasi»ning 1-bandiga muvofiq maktabgacha ta'lism tizimini tanqidiy o'r ganish va yanada takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqish bo'yicha komissiya tuzildi. 2019-yil 16-dekabrdagi "Maktabgacha ta'lism va tarbiya to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni hamda 2019-yil 6-avgustda O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lism vazirligi hamda Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 27-maydagi «O'zbekiston Respublikasida ekologik ta'lismni rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi 434-sonli qarorini amalga joriy etish maqsadida «Maktabgacha ta'lism tashkilotlarida ekologik ta'lism va tarbiyani rivojlantirish chora-tadbirlari» bo'yicha 7/1 va 6-sonli qo'shma qarorida ekologik ta'lism va tarbiyani qaytadan ko'rib chiqish vazifasi yuklatildi.

Bo'lajak pedagog-tarbiyachilarda ekologik-estetik bilim va ko'nikmalar tizimini shakllantirish murakkab jarayon hisoblanadi. Chunki uzuksiz ta'lism tizimini birinchi bosqichi bo'lgan maktabgacha ta'lism yoshidagi bolalarni ta'lism tarbiyasi juda murakkab jarayon bo'lib, bu jarayonda moddiy va ma'nnaviy hayotga oid ilk tushunchalar bolalar ongida shakllantiriladi. Bunday murakkab jarayonni amalga oshirishda tarbiyachilik faoliyatini mas'uliyat bilan bajaruvchi mutaxassislarni tayyorlashda ayrim ilmiy yondashuvlar asosida yaratilgan bo'lajak mutaxassislarni pedagog kasbiy tayyorlashga oid professogramma o'ziga xos ahamiyat kasb etadi.

1-jadval

Bo'lajak pedagog-tarbiyachilarda ekoestetik madaniyatni rivojlantirishga ta'sir etuvchi samarali omillar

| No | Ta'sir etuvchi omillar | Ko'rsatgich,% |
|-----------|---|----------------------|
| 1. | Oly ta'lism muassasalarida o'quvchi-talabalarda ekologik ta'lism va estetik tarbiya ko'nikmalarini shakllantirishga oid ma'lumotlarni bera oluvchi manbalarning mavjudligi | 54.3 |
| 2. | Pedagoglar tomonidan talabalarda ekoestetik ko'nikmalarini shakllantirish masalasiga e'tiborning qaratilganligi | 71.6 |
| 3. | Pedagolarning talabalarda ekologik ta'lism asosida ekoestetik dunyoqarash va tarbiya ko'nikmalarini shakllantirish tajribasiga ega ekanliklari va pedagogik mahorat darajasi | 41.6 |
| 4. | Rahbariyat tomonidan pedagoglarning talabalarda innovatsion ekologik ta'lism, ekologik etika va ekologik estetikaga oid bilimlarni shakllantirish borasidagi faoliyatlarining rag'batlantirilib borilishi | 52.1 |
| 5. | Ekologik ta'lism mazmunida ekoestetik bilim va ko'nikmalarni rivojlantirishni ifoda etuvchi ko'nikmalarni o'r ganishga nisbatan talabalarda qiziqishning mavjudligi | 34.8 |
| 6. | Ekoestetik madaniyat, estetik did va ekologik axloqiy-estetik mas'uliyatni shakllantirish va ularning mohiyati borasida ommaviy axborot vositalari tomonidan olib borilayotgan targ'ibot ishlaringin mavjudlik darajasi | 25.5 |
| 7. | Oly ta'lism muassasalari talabalarida ekologik ta'lism-tarbiya, uning negizida ekologik estika va estetika asosida ekoetik va ekoestetik tafakkurni shakllantirishga yo'naltirilgan faoliyatni tashkil etishda ta'lism muassasasi va jamoatchilik o'rtasidagi hamkorlik | 54.6 |
| 8. | Ommaviy axborot vositalarining talabalarda ekologik mas'uliyat, ekologik nafosat va did hamda ekoestetik fikrlash tarzini shakllantirishdagi roli | 29.8 |
| 9. | Ekologik ta'lismni keng ko'lama amalga oshirish doirasida talabalarda ekoestetik madaniyatni rivojalntirishga doir ijtimoiy harakatning muvaffaqiyatlari tashkil etilishi | 17.5 |

Shu bois, bo'lajak maktabgacha ta'lism mutaxassislari yuqorida qayd etilgan omillardan foydalanish darajasini aniqlash lozim. Ana shu maqsadda tajriba-sinov ishlariiga jalb etilgan bo'lajak pedagog-tarbiyachilar e'tiboriga savolnomha havola qilinib, ularning faoliyatlarida ekoestetik

madaniyatni rivojalintirishda muhim o'rin tutayotgan omillar aniqlandi. Sinaluvchi o'qituvchilar savolnomaning boshlanishidanoq o'z faoliyatlarida ekologik ta'limga bo'yicha o'quvchi uchun muhim o'rin tutuvchi omillarning bir nechtasidan samarali foydalanayotganlarini qayd etganlar. Bu fikr quyidagi ko'rsatgichlar yordamida aniqlandi (2.2-jadval).

2-jadval

Maktabgacha ta'limga mutaxassislari faoliyatiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar

| T/r | Maktabgacha ta'limga mutaxassislari faoliyatida yetakchi omillar | Ko'rsatkich, % |
|-----|---|----------------|
| 1 | Maktabgacha ta'limga mutaxassislari faoliyati uchun ekoestetik madaniyatni shakllantirishga oid ma'lumotlarni bera oluvchi manbalar | 67.5 |
| 2 | Maktabgacha ta'limga mutaxassislari faoliyati uchunekoestetik madaniyatni shakllantirishga qaratilayotgan ijtimoiy harakat ta'siri | 34.3 |
| 3 | Maktabgacha ta'limga mutaxassislari faoliyati uchunekoestetik madaniyatni shakllantirish tajribasi hamda pedagogik mahoratga ega ekanliklari | 51.3 |
| 4 | Maktabgacha ta'limga mutaxassislari faoliyati uchunekoestetik madaniyatni shakllantirishga qaratilgan faoliyatning ta'limga muassasi tomonidan rag'batlantirilib borilishi | 36.2 |
| 5 | Maktabgacha ta'limga mutaxassislari faoliyati uchunekoestetik madaniyatni shakllantirish ehtiyoji va qiziqishiga egaliklari | 19.7 |
| 6 | Ommaviy axborot vositalari tomonidan maktabgacha ta'limga mutaxassislari faoliyati uchun ekoestetik madaniyatni shakllantirish yo'lida olib borilayotgan targ'ibot ishlari | 51.5 |
| 7 | Maktabgacha ta'limga mutaxassislari faoliyati uchun ekoestetik madaniyatni shakllantirish jarayonida ta'limga muassasasi va jamoatchilik o'tasida yuzaga keluvchi hamkorlik | 38.3 |

NATIJALAR

Ekoestetik ta'limga tarbiya maktabgacha ta'limga muassasalarida tarbiyalanayotgan bolalar orasida bebafo insonparvarlik munosabatini rivojlantiradi: tabiatning barcha obyektlariga nisbatan qiziqishini uyg'otadi, atrof-muhitning shart-sharoitini o'rganish, unga g'amxo'rlik qilish malakalarini rivojlantiradi. Mamlakatimiz uzlusiz ta'limga tizimining barcha bo'g'inlarida, jumladan, maktabgacha ta'limga tizimida ekologik ta'limga tarbiyaga katta e'tibor qaratilayotganligi Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan ham e'tirof etilganligini qayd etishimiz o'rinni: «O'zbekistonda ko'p maktabgacha ta'limga muassasalarida bolalarni tabiat va atrof-muhit bilan tanishtirish mashg'ulotlari tashkil qilinadi. Jami maktabgacha muassasalarning 40 foizida ekologik ta'limga uchun maxsus xonalar bor va muassasalarning 16 foizida bolalar tabiatni parvarish qilishni o'rganadigan «Atrof-muhit so'qmoqlari» tashkil qilingan». [1] Shu o'rinda O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan «Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablari», [3] «Bolajon» tayanch dasturida ham maktabgacha yoshdagi bolalarning ekologik ta'limga tarbiyasiga alohida e'tibor qaratilganligini ta'kidlab o'tish lozim. [2]

Tabiat bolani estetik tarbiyalashning bitmas-tuganmas manbayidir. Bolalar doimo u yoki bu shaklda tabiat bilan aloqada bo'ladilar. Ularni yam-yashil o'tloqlar, anvoyi gullar, kapalaklar, qo'ng'izlar, qushlar, hayvonlar, suzib yurgan bulutlar, pag'a-pag'a yog'ayotgan qor uchqunlari, jilg'a va ko'lmaklar o'ziga jaib qiladi. O'simlik hamda jonzotlarning xilma-xil olami bolalarda tabiatga nisbatan jonli qiziqish va havas uyg'otadi, ularni faoliyatga undaydi. Tabiat bilan muloqotda bo'lish bolalarda atrof-olam haqida realistik bilim, jonli mavjudotga insoniy munosabatda bo'lishni shakllantirishga yordam beradi. Bolani tabiat bilan tanishtirish, uni tabiatni tushunishga o'rgatish, tabiatga ehtiyyotkorlik bilan munosabatda bo'lishni tarbiyalash maktabgacha ta'limga muassasalarining eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarni tabiat bilan tanishtirish jarayonida tabiatga nisbatan ehtiyyotkorlik bilan munosabatda bo'lishni tarkib toptirishga katta e'tibor beriladi. Bolalar tabiat haqida juda bo'limganda ilk bilimlarni egallab, o'simliklarni o'stirish, hayvonlarni parvarish qilishning oddiy usullarini o'rganib, tabiatni kuzatish, uning go'zalliklarini ko'ra olishni bilib olgan taqdirdagina ularda tabiatga nisbatan ehtiyyotkorlik va g'amxo'rona munosabatda bo'lishni tarbiyalash imkoniyati tug'iladi.

Bolalarda tabiat, jonajon o'lka, ona Vatanga muhabbat xuddi mana shu asnoda shakllanadi. «Bolajon» tayanch dasturida bolalarni tabiat bilan tanishtirish ishining mazmuni yoritilib, jonli va jonsiz tabiat, Yer kurrasi, hayvonot dunyosi, o'simliklar dunyosi haqida tasavvurlarga ega bo'lish bilim, malaka va ko'nikmalarni shakllantirish yo'nalishlari belgilab qo'yilgan. Bu talablar bolalarni birinchi navbatda ularning o'zlariga qadrdon bo'lgan, ular tug'ilib o'sgan o'lkalarining tabiatini bilan tanishtirilgandagina bajarilishi mumkin, chunki maktabgacha yoshdagi bolaning bilimini shakllantirish uni o'rabi o'rgan borliq bilan bevosita munosabatda bo'lishi jarayonida amalga oshiriladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning ekoestetik tarbiyasi muhim ahamiyatga ega bo'lib, xuddi mana shu yoshda bolada estetik didi va madaniyatning poydevorlari shakllanadi. Maktabgacha yoshda bolaning shaxsiy ekologik tarbiyasining tarkibiy qismi – tabiatni bilish bo'yicha bilim va uning ekologiya nuqtayi nazaridan yo'naltirilganligini kundalik turmush, turli-tuman faoliyatlarda (uy sharoiti, mehnat jarayoni va turli xil o'yinlarda) foydalanish tashkil qiladi.

Tabiatga nisbatan aqliy va estetik munosabatlar bola tomonidan o'zlashtirilayotgan bilimlarning mazmuni bilan yaqindan bog'liqidir. Ekologik mazmun bilan bog'liq bo'lgan bilim tabiatda bolalar faoliyati va ularning o'zini tuta bila olishi, intizomini boshqarib turadi va maqsad sari yo'naltiradi. Tabiatga bo'lgan munosabatni shakllantirishda bolalar idrokiga yetarli darajada yetib boruvchi tabiat qonunlari bo'yicha bilim alohida o'rinn egallaydi. Tabiatga nisbatan bo'lgan munosabatni rivojlantirish (mashg'ulot, ekskursiya, sayr qilish kabi hayotiy vaziyatlar) bolaning ma'nnaviy-ijobiy, ruhiy kechinmalariga asoslangan pedagogik jarayonni tashkil qilish bilan yaqindan bog'liq.

Hozirgi davr o'sib kelayotgan yosh avlod ongida tabiatga nisbatan ongli munosabatda bo'lish hissini rivojlantirishni taqozo etmoqda. Tabiatning kelgusida gullab-yashnashi yoki ekologik muammolarning globallashib borishi yosh avlodning tabiatga nisbatan munosabatiga bevosita va bilvosita bog'liqligini yosh avlod ongiga singdirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Bugun o'tmishda tabiatga yetkazilgan zararning chuqur asoratlarini tugatish, ekologik xavfsizlik va atrof-muhit muhofazasiga alohida e'tibor qaratilayotgan bir paytda ekologik madaniyat degan tushunchani yosh avlod ongida shakllantirish va rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Tabiat boyliklaridan unumli foydalanish, ularni muhofaza qilish masalalarini ongli ravishda hal etish uchun oila, maktabgacha ta'lrim muassasalaridan boshlab bolalarda tabiat ne'matlari mehr-muhabbat ruhini shakllantirish, estetik munosabatini o'stirish, ekologiyaga oid bilimlarni ular ongiga singdirish yosh avlodni kelajakda atrof-muhitni muhofaza qila oladigan va tabiatdan unga zarar keltirmagan holda foydalana oladigan bo'lib voyaga yetkazishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

MUHOKAMA

Maktabgacha ta'lrim muassasasi tarbiyachilari o'zidagi ekoestetik bilim va ko'nikmalar asosida bolalarga tabiyatni sevish, unga mehr qo'yish, undagi ulug'vorlikni anglash, uni muhofaza qilish bo'yicha ta'lrim berib borishi lozim. Har bir guruhsda rivojlantiruvchi muhitda ekologik bilimlarni tashkil etish kerak. Bizni o'rabi turgan tevarak-atrofqa to'g'ri munosabatda bo'lish, jonli tabiatni parvarish qilish va uni muhofaza qilishga qaratilgan tarbiyaviy ishlarni muntazam olib borish lozim.

Ekologik tarbiya va go'zallik bilan tarbiyalashda tabiat bilan mag'rurlanish hissini tarbiyalash zarur. Tabiatdagisi gullar, o'tlar, hasharotlarning hammasi bolalarni o'ziga jalb etadi. Bolalarimizni tabiat soqchilari qilib tarbiyalashimiz zarur. Tarbiyachi bolalarga ilk yoshdan tabiat bilan taajjublanish, mag'rurlanish hissini singdirib borishi lozim. Ilk yosh sensor tarbiya berish uchun tevarak-atrof haqida tasavvurlarni yig'ish uchun eng qulay davrdir. Ilk yoshdagi bolalar bilan ishslashda biz ning vazifamiz: tevarak-atrof, tabiat haqidagi birlamchi tasavvurlarni singdirish, o'simlik, hayvonlar ham jonli ekanligi, ularning nafas olishi, suv ichishi, ovqatlanishi, insonlar kabi og'riqi his etishi haqida tushunchalar beriladi.[5]

Maktabgacha ta'lrim muassasalarida tabiat olamini o'rganish uchun guruhlarda ekotizimni o'rganish bo'yicha markazlar yaratish, ya'ni har bir guruh tabiat burchagida jonzotlar, dorivor va madaniy o'simliklar, idishlarda suv, qum, toshlar bo'lishi kerak. Bolalar ularning xususiyatlarini o'yin faoliyati yordamida o'rganib boradilar, o'zlarining ijodiy sifatlarini namoyon qiladilar, xayoliy va sensor qobiliyatlarini hamda mayda motorikani rivojlantiradilar.

Ekotizimni o'rganish markazlarida kichkintoylar turli tajribalar o'tkazadilar: idishlarga suv quyadilar, uni tindiradilar, qanday narsalar suvdan cho'kishi va cho'kmasligini bilib oladilar, qumdan nimalar yasash mumkinligini ko'radilar va tushunadilar. Tajriba va kuzatishlar qaytarilib va

murakkablashtirib boriladi. Maktabgacha ta'lif muassasalarida ekologik tarbiyada insonlar bilan tabiat o'rtasida uzviyilik, insonga bo'lgan ta'sir borasida ma'lumotlar berib, mashg'ulot o'tish jarayonida bolalar tabiat haqida bilishi kerak bo'lgan tushunchalar singdirilishi lozim.

XULOSA

Hozirgi davr o'sib kelayotgan yosh avlod ongida tabiatga nisbatan ongli munosabatda bo'lish hissini rivojlantirishni taqozo etmoqda. Tabiatning kelgusida gullab-yashnashi yoki ekologik muammolarning globallashib borishi yosh avlodning tabiatga nisbatan munosabatiga bevosita va bilvosita bog'liqligini yosh avlod ongiga singdirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Bugun o'tmishda tabiatga yetkazilgan zararning chuqur asoratlarini tugatish, ekologik xavfsizlik va atrof-muhit muhofazasiga alohida e'tibor qaratilayotgan bir paytda ekologik madaniyat degan tushunchani yosh avlod ongida shakllantirish va rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilganda, bo'lajak pedagog-tarbiyachilarining ekoestetik madaniyatini rivojlantirish asosida tarbiyalanuvchi bollarning tabiatga estetik munosabatini shakllantirishda muhim omil bo'ladi. Shuning uchun bo'lajak mutaxasislarning ekologik va estetik dunyoqarashini uyg'unlikda rivojlantirish zarur bo'ladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2023 йил учун Мурожаатномаси//
<https://review.uz/oz/post/ozbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyoyevning-2023-yil-uchun-murojaatnomasi-toliq-matn>
2. Мирзиёев Ш.М. Халқимиз розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. – Тошкент. Ўзбекистон. 2018. – Б 252.
3. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2023 йил учун Мурожаатномаси//
<https://review.uz/oz/post/ozbekiston-respublikasi->
4. Бирлашган Миллатлар Ташкилоти Ўзбекистонга тегиш-ли иккинчи Атроф-муҳит ҳолати шарҳининг 29-серияси. 2010.
5. Мактабгача ёшдаги болалар ривожланишига қўйиладиган Давлат дастурлари. – Т., 2008.
6. «Болажон» таянч дастури. – Т., 2010